

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11254071>

## GRIFONLAR, QUVUR ORTI VA QUVURLAR ORALIG'IDA GAZ, NEFT, SUV PAYDO BO'LISHI

**Bo'riev Sardor Sayfullaevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrası stajyor-o'qituvchisi

[burievsardor92@gmail.com](mailto:burievsardor92@gmail.com)

**Yusupov Nurillo Eshdavlat o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrası talabasi

[nurillo1213@gmail.com](mailto:nurillo1213@gmail.com)

***Annotatsiya.** Grifonlar - quduq usti chegarasidan boshqa joylarda gaz, neft, suv paydo bo'lishidir. Quvurlar oralig'ida paydo bo'lishlar deb - quyilish, otilish va favvoralarni ximoya tizmalari oralig'idagi xalqa oralig'idan chiqishi tushuniladi.*

***Kalit so'zlar:** Grifon, Quvur, tektonik, Konduktor, perforator.*

***Abstract.** Griffons are the formation of gas, oil, water in places other than the surface of the well. It is understood that they appear between pipes - discharge, discharge and discharge of fountains from the ring range between the ximoya ridges.*

***Keywords:** Griffon, pipe, tectonic, conductor, perforator.*

Quvurlar ortidan neft, gaz, suv paydo bo'lishlari esa - ximoya tizmalari, konduktor, yo'llanma tizmalari ortidan quduq ustida paydo bo'lishlar hisoblanadi.

Burg'ilash jarayonida quduq bilan kesishadigan tektonik buzilishlar zonasidagi yoriqlardan katta bosim bilan gaz, neft, suvning yuqoriga tomon harakatlanishi natijasida grifonlar hosil bo'ladi.

Quvurlar oralig'idan gaz, neft, suv xosil bo'lishi ostki yuqori bosimli qatlam flyuidlari yuqorigi quvur orti oralig'iga (Sement qorishmasi bilan yopilmagan) o'tishi natijasida xosil bo'ladi.

Quvur orti va quvurlar oralig'ida gaz, neft, suv paydo bo'lishining boshqa sabablari - himoya quvurining rezkali bog'lanishlarida yaxshi, to'liq qotirilmaganlik;

Quduqni burg'ilashda va to'htashlar jarayonida qatlam flyuidlarining bir gorizontdan boshqasiga o'tishi;

Quduqni yuvishda, burg'ilash tizmasini tushirishda va ko'tarishda bosimning keskin o'zgarishi natijasida.

Yuqorida aytilganidek bunday paydo bo'lishlar - quduqda juda katta bosim qarshiligi bo'lganida, burg'ilash eritmasi juda ham og'irlashtirilganda, o'pirilishlar sodir bo'lganida - sirkulyatsiyani yo'lga qo'yishda, bosim ta'sirida sinab ko'rishda (opressovka) xosil bo'lishi yoki kuchayishi mumkin.

Grifonlar va quvurlar oralig'idan gaz, neft, suv paydo bo'lishi - juda ham havfli hisoblanadi va ularni bartaraf etish juda ham qiyindir.

Grifonlar, quvur orti va quvurlar oralig'idan gaz, neft, suv paydo bo'lishini oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

1) Quduqning loyihadagi profili va joylashish o'rnini tektonik buzilish va yoriqlar bo'lgan joydan uzoqroq tanlash;

2) Barcha yuqori bosimli va yutiluvchi gorizontlarni ishonchli yopish. Konduktor ortidan Sement eritmasini quduq ustigacha chiqarish, boshqa ximoya tizmalari ortidan esa Sement eritmasini - minimum oldingi himoya tizmasining bashmagi yopilishigacha ta'minlash;

3) Barcha ximoya tizmalarini germetikligini ta'minlash, talabga javob beradigan quvurlarni tanlash, ularni bog'lash uchun germetiklikni saqlovchi moylash materiallaridan foydalanish, boshlang'ich ximoya tizmalari qotirilishini qattiq nazorat qilish;

4) Ximoya tizmasi tushirilmagan oraliqda burg'ilash tizmasi va quduq devori orasidagi oraliqni iloji boricha kattaroq tanlash, burg'ilash tizmasini quduqqa tushirish tezligini cheklash.

Boshlangan grifonni bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- grifon qaysi quduqdan chiqayotganini aniqlanadi;
- yoriqlar bilan buzilgan qatlamga bosimni iloji boricha pasaytirish;
- boshqa quduqlar orqali gazli qatlamdan gaz olishni kuchaytirish. Kerak bo'lganda burg'ilanayotgan quduqdan ham vaqtinchalik gaz olish va keyin esa yoriqlar bilan buzilgan qatlamni Sement eritmasi yoki tamponaj materiallari bilan yopib tashlash.

Quvurlar oralig'idan paydo bo'lgan neft, gaz, suvlarni bartaraf etishda, quduq ustida bosim kattaligi aniqlanadi, perforator va teshuvchi moslamalar bilan ximoya tizmasi teshiladi, paydo bo'lishlarni yo'qotish uchun burg'ilash eritmasi haydaladi, keyin esa Sement eritmasi haydaladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullaevich, Bo'riev Sardor. "FARBIIY ЎЗБЕКИСТОНДА ТЕРРИГЕН ЮРА ЁТҚИЗИҚЛАРИНИНГ ГАЗЛИЛИК ИСТИҚБОЛЛАРИ." *Journal of new century innovations* 38.1 (2023): 93-96.
2. Bo'riev, Sardor Sayfullaevich. "QATLAMNI GIDRAVLİK YORISH (QGY) NI AMALGA OSHIRISHDA QO 'LLANILADIGAN AGREGATLARNING BOG 'LANMASI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 1. 2023.
3. Bo'riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHAROITIDA QATLAM GIDRAVLİK YORILGANDAN KEYIN QUDUQDA YUVISH ISHLARININI AMALGA OSHIRISH BO 'YICHA KO 'RSATMALAR." *Educational Research in Universal Sciences* 2.4 (2023): 582-585.
4. Sayfullaevich, Bo'riev Sardor. "GAZ AJRATGICHNING ISH PRINSIPI VA TUZILISHINI O'RGANISH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 163-168.
5. Sayfullaevich, Bo'riev Sardor, and Raufov Mirabbos Mamadali o'g'li. "QATLAMNI SINAB KO'RISH USULLARI. QATLAMNI TO'G'RIDAN-TO'G'RI SINAB KO'RISH USULLARI. XIMOYA TIZMASI ORQALI SINASH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 169-173.
6. Sayfullaevich, Bo'riev Sardor. "QUDUQ TUBI DVIGATELLARI YORDAMIDA BURG'ILASHDA QUDUQNI SIRKULYATSION TIZIMIDAGI BOSIM YO'QOTILISHINI HISOBLASH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 174-178.
7. Bo'riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHROITIDA QO 'LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLİK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLANILISH TAHLILI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.1 (2023): 54-58.
8. Bo'riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHROITIDA QO 'LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLİK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLANILISH TAHLILI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.1 (2023): 54-58.
9. Sayfullaevich, Bo'riev Sardor. "QATLAMNI GIDRAVLİK YORISHDA QO 'LLANILADIGAN ERITMALAR TURINI ASOSLASH." *Journal of new century innovations* 11.1 (2022): 69-75.
10. Турдиев, Ш., Комилов, Б., Раббимов, Ж., & Бўриев, С. (2022). Муродтепа майдонида излов-қидирув ишларини баҳолаш тамойиллари ва иқтисодий

самарадорлик кўрсаткичлари. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 246-250.

11. Yigitali, Zuxurov, Sulstonov Shuhrat. “[The use of geographic information systems in modern cartography](https://cyberleninka.ru/article/n/the-use-of-geographic-information-systems-in-modern-cartography)”. *Universum: texnicheskie nauki* 11-6 (104) (2022): 52-55. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-use-of-geographic-information-systems-in-modern-cartography>

12. Султанов, Ш. А. (2020). ПЕТРОХИМИЧЕСКИЕ И ГЕОХИМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДАЙКОВЫХ СЕРИИ СЕВЕРНОЙ ЧАСТИ ЧАКЫЛКАЛЯНСКОГО МЕГАБЛОКА (ЮЖНЫЙ УЗБЕКИСТАН). *ТЕНУКА*, (3), 24-33.

13. Sulstonov Shuxrat Adxamovich, Norbekov Piyos Sherzodjon o'g'li. [YERDAGI HAYOT TARZIGA TA'SIR ETUVCHI SALBIY OMILLAR VA UNDA INSONIYATNI O'RNINI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR](#). *PEDAGOGS* 46/2 69-74.